BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA BOLALAR VA YOSHLARNING INSON HUQUQLARI BO‘YICHA TA’LIMI:O‘ZBEKISTON UCHUN MILLIY MODELI

Abduxakimov Asilbek Jumanazar o‘g‘li
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Xalqaro huquq fakulteti 4-kurs talabasi
E-pochta:aabduxakimov28uwed@gmail.com
Ilmiy rahbar: Xamdamova Firuza Urazaliyevna
Yuridik fanlar doktori (DSc)
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
“Xalqaro huquq va ommaviy-huquqiy fanlar” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada barqaror rivojlanish sharoitida bolalar va yoshlarning inson huquqlari bo‘yicha ta’limini takomillashtirishning xalqaro-huquqiy va institutsional asoslari hamda O‘zbekiston uchun milliy modelni shakllantirish masalalari tadqiq etiladi. Inson huquqlari ta’limining maktabgacha ta’limdan boshlab boshlang‘ich, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’limgacha bo‘lgan bosqichlarda uzluksizligini ta’minlash, uning mazmunini yosh xususiyatlariga moslashtirish va ta’lim dasturlariga integratsiya qilish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Inson huquqlari bo‘yicha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi deklaratsiya hamda Barqaror rivojlanish maqsadlarining tegishli vazifalari asosida O‘zbekiston milliy qonunchiligining xalqaro standartlarga muvofiqligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida huquqiy bilim, amaliy kompetensiya, tenglik, inklyuzivlik va fuqarolik ishtirokiga asoslangan uzluksiz inson huquqlari ta’limi milliy modelini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: inson huquqlari ta’limi, barqaror rivojlanish, bolalar huquqlari, yoshlar, maktabgacha ta’lim, uzluksiz ta’lim, xalqaro standartlar, huquqiy madaniyat, inklyuziv ta’lim, milliy model.

Аннотация: В статье исследуются международно-правовые и институциональные основы совершенствования образования в области прав человека детей и молодёжи в условиях устойчивого развития, а также вопросы формирования национальной модели для Республики Узбекистан. Особое внимание уделяется обеспечению непрерывности образования в области прав человека на всех уровнях-от дошкольного до начального, общего среднего, профессионального и высшего образования, адаптации его содержания к возрастным особенностям обучающихся и интеграции соответствующих вопросов в образовательные программы. На основе Конвенции ООН о правах ребёнка, Всеобщей декларации прав человека, Декларации ООН об образовании и подготовке в области прав человека и соответствующих Целей устойчивого развития анализируется соответствие национального законодательства Узбекистана международным стандартам. По результатам исследования предлагаются научно-практические подходы к развитию национальной модели непрерывного образования в области прав человека, основанной на правовых знаниях, практических компетенциях, равенстве, инклюзивности и гражданском участии.

Ключевые слова: образование в области прав человека, устойчивое развитие, права детей, молодёжь, дошкольное образование, непрерывное образование, международные стандарты, правовая культура, инклюзивное образование, национальная модель.

Abstract: This article examines the international legal and institutional foundations for improving human rights education for children and young people in the context of sustainable development and developing a national model for the Republic of Uzbekistan. Particular attention is given to ensuring the continuity of human rights education across all educational levels, from preschool and primary

education to general secondary, vocational and higher education, adapting its content to learners' age-related needs and integrating human rights principles into educational curricula. Drawing upon the UN Convention on the Rights of the Child, the Universal Declaration of Human Rights, the UN Declaration on Human Rights Education and Training, and relevant Sustainable Development Goals, the article analyses the compliance of Uzbekistan's national legislation with international standards. The study proposes practical and theoretical approaches to developing a national model of continuous human rights education based on legal knowledge, practical competencies, equality, inclusiveness and civil participation.

Keywords: human rights education, sustainable development, children's rights, youth, preschool education, continuous education, international standards, legal culture, inclusive education, national model.

KIRISH

Inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilish demokratik huquqiy davlat hamda barqaror fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda inson huquqlari bo'yicha ta'lim alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki inson o'z huquq va erkinliklarini bilishi, ularni amalga oshirish mexanizmlarini tushunishi hamda boshqa shaxslarning huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishi, avvalo, ta'lim va tarbiya orqali shakllanadi.

Bugungi globallashuv, raqamlashtirish va ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida bolalar hamda yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirish faqat huquqiy normalarni o'rgatish bilan cheklanmasligi lozim. Bu jarayon bolalarda tenglik, adolat, bag'rikenglik, kamsitmaslik, shaxsiy daxlsizlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi qadriyatlarni shakllantirishni ham qamrab olishi kerak. Shu sababli inson huquqlari bo'yicha ta'limni maktab yoki oliy ta'lim bosqichidan emas, balki maktabgacha ta'lim davridan boshlash va uni uzluksiz tizim sifatida rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda. Mazkur masalaning xalqaro-huquqiy asoslari Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi hamda BMT Bosh Assambleyasining 2011-yil 19-dekabrdagi 66/137-son

rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan Inson huquqlari bo‘yicha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi deklaratsiyada o‘z ifodasini topgan. Deklaratsiyaning 3-moddasiga ko‘ra, inson huquqlari bo‘yicha ta’lim barcha yoshdagilarni va jamiyatning barcha qatlamlarini, jumladan, maktabgacha, boshlang‘ich, o‘rta hamda oliy ta’limni qamrab olishi kerak. Demak, inson huquqlari bo‘yicha ta’limni faqat maktab yoki oliy ta’lim bilan cheklash xalqaro konsepsiyaning to‘liq mazmunini aks ettirmaydi. Xususan, Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning 29-moddasi ta’limning bolaning shaxsiyati, iste’dodi, aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, inson huquqlari va asosiy erkinliklariga hurmatni shakllantirishga yo‘naltirilishini belgilaydi.

Bundan tashqari, BMTning 2030-yilgacha bo‘lgan Barqaror rivojlanish kun tartibidagi 4.7-vazifa barcha ta’lim oluvchilarning barqaror rivojlanish, inson huquqlari, gender tengligi, tinchlik va zo‘ravonliksiz madaniyat bo‘yicha zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishini nazarda tutadi. Bu esa inson huquqlari bo‘yicha ta’limni barqaror rivojlanish siyosatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqishni talab etadi.

O‘zbekistonda ham inson huquqlarini ta’minlash, bolalar manfaatlarini himoya qilish va ta’lim sifatini oshirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida ham ushbu yo‘nalishning konstitutsiyaviy va qonunchilik asoslari mavjud. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 50-moddasida har kimning ta’lim olish huquqi, davlatning uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish majburiyati, maktabgacha ta’limni rivojlantirish va inklyuziv ta’limni ta’minlash kafolatlangan1.2020-yil 22-iyundagi PF-6012-son Prezident farmoni bilan tasdiqlangan Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasida ham aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda inson huquqlari madaniyatini

1 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-URL-// https://lex.uz/uz/docs/-6445145 //

shakllantirish ustuvor vazifalar qatorida belgilangan. 2 Shu bilan birga, inson huquqlari bo‘yicha ta’limni barcha yosh bosqichlariga moslashtirish, uning uzviyligini ta’minlash va nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan birlashtirish masalalari yanada tizimli yondashuvni talab qiladi.

I.INSON HUQUQLARI BO‘YICHA TA’LIMNING HUQUQIY MOHIYATI VA XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI

Inson huquqlari bo‘yicha ta’limning huquqiy mohiyatini anglashda, eng avvalo, ta’lim olish huquqi bilan inson huquqlari bo‘yicha ta’lim tushunchalarini farqlash lozim. Ta’lim olish huquqi shaxsning bilim olish imkoniyatini kafolatlasa, inson huquqlari bo‘yicha ta’lim ushbu bilimlar orqali insonning o‘z huquqlarini anglashi, ulardan foydalanishi va boshqa shaxslarning huquqlarini hurmat qilishini ta’minlashga qaratiladi.

BMT Bosh Assambleyasining 2011 yil 19 dekabrdagi 66/137-sonli rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan Inson huquqlari bo‘yicha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi deklaratsiyasining 2-moddasida mazkur jarayonning uchta asosiy tarkibiy qismini belgilaydi:

Birinchisi, *education about human rights* - inson huquqlari haqida ta’lim. Bunda shaxsga inson huquqlarining mazmuni, xalqaro standartlar, milliy qonunchilik va huquqlarni himoya qilish mexanizmlari o‘rgatiladi.

Ikkinchisi, *education through human rights* - inson huquqlari orqali ta’lim. Bu yondashuv ta’lim jarayonining o‘zi inson qadr-qimmati, tenglik, hurmat, kamsitmaslik va ishtirok etish tamoyillariga muvofiq tashkil etilishini talab qiladi.

Uchinchisi, *education for human rights* - inson huquqlari uchun ta’lim. Bunda shaxsning o‘z huquqlarini amalga oshirish, buzilgan huquqlarini himoya

2 Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni-URL-// https://www.lex.uz/uz/acts/-4872355 //

qilish va boshqalarning huquqlarini ta’minlashdagi faol ishtiroki shakllantiriladi.3 Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, inson huquqlari ta’limining samaradorligi faqat o‘quvchining huquqiy bilim darajasi bilan emas, balki uning real hayotdagi huquqiy vaziyatlarni anglash va ularga qonuniy munosabat bildirish qobiliyati bilan ham baholanishi lozim.

Inson huquqlari ta’limi huquqi xalqaro huquqda avvalo ta’lim olish huquqining tarkibiy qismi sifatida shakllangan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining (1948) 26-moddasi 2-bandiga ko‘ra, ta’lim insonning shaxsini har tomonlama rivojlantirishga hamda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilishni kuchaytirishga qaratilishi kerak. 4 Mazkur qoida keyinchalik Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 13-moddasida shartnomaviy majburiyat shaklida mustahkamlandi. 5

Bolalar nuqtayi nazaridan eng muhim hujjat - 1989 yilgi BMT Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya hisoblanadi. Konvensiyaning 28-moddasi bolaning ta’lim olish huquqini e’tirof etsa, 29-moddasi 1-bandi ta’lim maqsadlarini belgilab, ular qatoriga bolaning shaxsiyati, iste’dodi va qobiliyatini to‘liq rivojlantirish, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilishga tarbiyalash, tinchlik, bag‘rikenglik va jinslar tengligi ruhida mas’uliyatli hayotga tayyorlashni

---

3 BMTning Inson huquqlari bo‘yicha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi deklaratsiyasi-2011-

URL-//https://www.hurights.or.jp/archives/asia-pacific/section1/pdf/11%20-%20UN%20Declaration%20on%20Human%20Rights%20Education%20and%20Training.pdf //

4 Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi-1948-URL-// https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights?ysclid=mwb52kgqm2548455883 //

5 Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt-1966-URL-// https://lex.uz/docs/-2686000 //

kiritadi. Konvensiyaning 42-moddasi esa ishtirokchi davlatlarga uning tamoyillari va qoidalarini kattalar va bolalar o‘rtasida keng targ‘ib qilish majburiyatini yuklaydi. 6 Bola huquqlari qo‘mitasining 1-sonli Umumiy sharhi (2001) 29-moddaning 1-bandini talqin qilib, ta’lim jarayonining o‘zi ham inson huquqlariga mos bo‘lishi, ya’ni bola qadr-qimmati hurmat qilinadigan ta’lim muhiti yaratilishi zarurligini ta’kidlaydi.7 O‘zbekiston Respublikasi ushbu konvensiyani 1992 yilda ratifikatsiya qilgan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2015-yil 25-sentabrda qabul qilingan “Barqaror rivojlanish bo‘yicha 2030-yilgacha kun tartibi” (Agenda 2030) inson huquqlarini ta’minlash va rivojlantirishning muhim xalqaro asoslaridan biridir. Mazkur hujjatda belgilangan 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadining bir qismi inson huquqlari bo‘yicha ta’lim bilan bevosita bog‘liq. Xususan, 4-maqsad sifatli ta’limni ta’minlash, 5-maqsad gender tengligiga erishish, 10-maqsad tengsizlikni kamaytirish hamda 16-maqsad tinchlik, adolat va samarali institutlarni rivojlantirishga qaratilgan. Ayniqsa, 4.7-vazifa ta’lim orqali inson huquqlari, gender tengligi, tinchlik va zo‘ravonliksiz madaniyatni targ‘ib qilishni, 4.5-vazifa esa ta’limdagi teng imkoniyatlarni ta’minlashni nazarda tutadi. Shu jihatdan olib qaraganda, Barqaror rivojlanish maqsadlari inson huquqlari bo‘yicha ta’limni rivojlantirishning muhim xalqaro mezonlarini belgilaydi.8

---

6 Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya-1989-

URL-// https://unispal.un.org/pdfs/D0A4C3AD19FE4A04052565F70070691A.pdf //

7 Bola huquqlari qo‘mitasining 1-sonli Umumiy sharhi-2001- // https://www.right-to-education.org/sites/right-to-education.org/files/resource-attachments/CRC_General_Comment_1_en.pdf //

8 BMT Bosh Assambleyasining 2015-yil 25-sentabrdagi 70/1-son rezolyutsiyasi, “Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development”. URL: https://sdgs.un.org/2030agenda //

II.O‘ZBEKISTONDA INSON HUQUQLARI BO‘YICHA TA’LIMNING MILLIY-HUQUQIY ASOSLARI VA MAVJUD MUAMMOLAR

O‘zbekistonda inson huquqlari bo‘yicha ta’limni rivojlantirish masalasini tahlil qilishda milliy qonunchilikning nafaqat huquqni kafolatlovchi, balki huquqiy ong va madaniyatni shakllantiruvchi normalariga ham e’tibor qaratish lozim.

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida: “Har kim ta’lim olish huquqiga ega.Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi.Davlat maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.Davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o‘rta ta’lim majburiydir.Maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratidadir.Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi.” 9 Bunga ko‘ra davlat zimmasiga uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish, maktabgacha ta’limni qo‘llab-quvvatlash va alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun inklyuziv ta’limni ta’minlash majburiyatini yuklaydi. Ushbu konstitutsiyaviy norma inson huquqlari bo‘yicha ta’limni barcha ta’lim bosqichlariga tatbiq etish uchun muhim huquqiy asos hisoblanadi.

Ikkinchidan, 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Qonunning 4-moddasida ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar, 5-moddasida ta’lim olish huquqi, 8-11-moddalarida esa ta’lim turlari va shakllari belgilangan.10 Mazkur normalar inson huquqlari ta’limini tegishli ta’lim bosqichlariga integratsiya qilish uchun normativ asos bo‘lib xizmat qiladi.

---

9 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-URL-// https://lex.uz/uz/docs/-6445145 //

10 O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr-URL // https://lex.uz/uz/docs/-5013007 //

Uchinchidan, 2008-yil 7-yanvardagi O‘RQ-139-son “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun bolaning asosiy huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishning milliy kafolatlarini belgilaydi. Xususan, 10-modda erkinlik, shaxsiy daxlsizlik,turar joyi daxlsizligi, 11-modda sud orqali himoyaga bo‘lgan huquq, 15-modda o‘z fikrini erkin ifoda etish, 16-modda axborot olish, 23-modda bilim olish huquqiga bag‘ishlangan. 11 Mazkur normalar bolalarning inson huquqlari bo‘yicha ta’lim mazmunini shakllantirishda bevosita qo‘llaniladi va kafolatlanadi.

To‘rtinchidan, 2016-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-406-son “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun yoshlarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, ularning huquqiy savodxonligini oshirish hamda sifatli ta’lim olishiga qaratilgan milliy-huquqiy asoslarni belgilaydi. Xususan, 4-modda yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy prinsiplarini, 5-modda yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ochiq va sifatli ta’lim olish hamda huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish yo‘nalishlarini, 10-modda esa ta’lim muassasalarining yoshlar huquqiy madaniyatini oshirishdagi ishtirokini nazarda tutadi. 12 Mazkur normalar inson huquqlari bo‘yicha ta’limni rivojlantirish, yoshlarda huquqlarga hurmat va ularni himoya qilish ko‘nikmalarini shakllantirishning muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, milliy qonunchilik ta’limning bepulligi, umumiyligi, kamsitmaslik va bola manfaatlarining ustuvorligi kabi tamoyillar bo‘yicha xalqaro standartlarga asosan mos keladi.

O‘zbekistonda inson huquqlari bo‘yicha ta’limni rivojlantirish uchun zarur milliy-huquqiy asoslar shakllangan bo‘lsa-da, ularni ta’lim jarayoniga samarali

---

11 “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun-2008-URL-// https://lex.uz/uz/docs/-1297315 //

12 “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun-2016-URL-// https://test.lex.uz/uz/docs/-3026246 //

tatbiq etishda ayrim amaliy va institutsional muammolar mavjud. Asosiy muammo shundaki, inson huquqlariga oid bilimlarni o‘rgatish bilan ushbu bilimlarni kundalik hayotda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish o‘rtasida muayyan tafovut mavjud. Boshqacha aytganda, o‘quvchi o‘z huquqlarini nazariy jihatdan bilishi mumkin, biroq ular buzilgan vaziyatda qanday harakat qilish, kimga murojaat etish va qanday himoya vositalaridan foydalanish kerakligini yetarlicha bilmasligi mumkin.

Birinchidan, inson huquqlari ta’limining nazariy bilimlarni yodlash bilan cheklanib qolishi muammosi. Amaliyotda inson huquqlariga oid bilimlar ko‘pincha “Huquq”, “Tarbiya” fanlari, sinf soatlari va turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar orqali beriladi. Bunday mashg‘ulotlar muhim bo‘lsa-da, ularda qonun normalari va huquqiy tushunchalarni yodlashga ustuvorlik berilishi o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini yetarlicha rivojlantirmasligi mumkin. Masalan, o‘quvchi Konstitutsiyada har kimning ta’lim olish huquqi kafolatlanganini biladi. Biroq u maktabda kamsitilsa, fikr bildirgani uchun bosimga uchrasa yoki boshqa sabab bilan ta’lim jarayonida teng ishtirok etish imkoniyatidan mahrum qilinsa, o‘z huquqini qanday himoya qilishni bilmasligi mumkin. Xuddi shuningdek, bola zo‘ravonlikka duch kelganda bunday holat haqida kimga xabar berish, qanday yordam so‘rash va o‘z xavfsizligini qanday ta’minlash kerakligini bilishi lozim.Shu sababli dars jarayoniga huquqiy keyslar, hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish, rolli o‘yinlar, debatlar va murojaat yozish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni kengroq joriy etish zarur.

Ikkinchidan, shahar va qishloq ta’lim muassasalari o‘rtasidagi resurslar tafovuti. Inson huquqlari bo‘yicha ta’limning sifati nafaqat o‘quv dasturiga, balki ta’lim muassasasining moddiy-texnik imkoniyatlari, malakali pedagoglar bilan ta’minlanganligi va zamonaviy axborot resurslaridan foydalanish darajasiga ham bog‘liq. Shahar va qishloq hududlaridagi ayrim ta’lim muassasalarida mavjud imkoniyatlarning farqlanishi bolalarning sifatli huquqiy ta’lim olish imkoniyatlariga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin.Masalan, yirik shahardagi maktab

o‘quvchilari huquqshunoslar, sud va davlat organlari vakillari bilan uchrashuvlarda qatnashish, elektron kutubxonalar va onlayn ta’lim platformalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi mumkin. Chekka hududdagi ayrim maktablarda esa internet tezligining pastligi, kompyuterlarning yetishmasligi yoki huquqiy ta’lim bo‘yicha tajribali mutaxassislarning kamligi bunday imkoniyatlarni cheklashi ehtimoli mavjud. Ularning mazkur dasturdan foydalanish va bilimlarni o‘zlashtirish imkoniyatlari ham teng bo‘lishi kerak.

Uchinchidan, pedagoglarning inson huquqlari bo‘yicha kasbiy va metodik tayyorgarligi masalasi. Inson huquqlari ta’limining samaradorligi asosan pedagoglarning huquqiy bilimlari, bolalar bilan ishlash tajribasi va zamonaviy o‘qitish metodlarini qo‘llash qobiliyatiga bog‘liq. Inson huquqlari ta’limining sifati, avvalo, uni o‘qitayotgan pedagoglarning huquqiy bilimi va kasbiy malakasiga bog‘liq. Ayrim ta’lim muassasalarida davlat va huquq asoslari fanining yetarli darajada yuridik tayyorgarlikka ega bo‘lmagan, boshqa mutaxassislik vakillari, jumladan, tarix fani o‘qituvchilari tomonidan o‘qitilishi huquqiy mavzularning yuzaki yoritilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Chunki tarixiy bilim va huquqiy kompetensiya bir-biridan farq qiladi.Masalan, pedagog o‘quvchilarga inson huquqlari, Konstitutsiya va bola huquqlarini tushuntirishda nafaqat tegishli normalarni, balki ularning amaliy qo‘llanilishi va himoya mexanizmlarini ham to‘g‘ri izohlashi zarur. Yetarli tayyorgarlik bo‘lmasa, huquqiy tushunchalar noto‘g‘ri talqin qilinishi yoki amaliy misollar bilan mustahkamlanmasligi mumkin.

Shu sababli davlat va huquq asoslari fanini o‘qituvchi pedagoglar uchun yuridik bilimlar va inson huquqlari bo‘yicha maxsus malaka oshirish kurslarini joriy etish, ularning kasbiy hamda metodik kompetensiyalariga aniq talablar belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

III.O‘ZBEKISTONDA BOLALAR VA YOSHLARNING INSON HUQUQLARI BO‘YICHA TA’LIMINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION “A-LEX” MILLIY MODELI

Yuqorida olib borilgan tahlillar bolalar va yoshlarning inson huquqlari bo‘yicha ta’limini rivojlantirish masalasi faqat nazariy bilimlarni kengaytirish emas, balki ushbu bilimlarning amaliy hayotda qo‘llanilishini ta’minlashga qaratilgan yaxlit tizim zarur ekanligini.ko‘rsatadi. Mazkur masalada alohida e’tibor talab etadigan jihat inson huquqlari bo‘yicha ta’limning turli bosqichlari o‘rtasidagi mazmuniy uzviylikni ta’minlash hisoblanadi. O‘zbekistonda bolalar va yoshlarning inson huquqlari bo‘yicha ta’limini takomillashtirishda asosiy e’tibor alohida o‘quv mavzulari yoki ma’rifiy tadbirlar sonini ko‘paytirish bilan emas, balki mavjud ta’lim imkoniyatlarini yagona maqsad atrofida birlashtirish, ularning izchilligini ta’minlash hamda har bir ta’lim bosqichi uchun aniq kompetensiyaviy maqsadlarni,natijalarni belgilashga qaratilishi zarur. Bunday yondashuv inson huquqlarini o‘qitish jarayonida nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlaydi, yosh xususiyatlariga mos ta’lim metodlarini qo‘llash hamda o‘quvchilarning egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Aynan ushbu ehtiyojlardan kelib chiqib, mazkur tadqiqot doirasida muallif tomonidan “A-LEX”-bolalar va yoshlarning inson huquqlari bo‘yicha uzluksiz ta’limini rivojlantirishning innovatsion milliy modeli taklif etamiz. Mazkur model inson huquqlari bo‘yicha ta’limni maktabgacha yoshdagi dastlabki tasavvurlardan boshlab, yoshlarning mustaqil huquqiy tafakkuri, amaliy kompetensiyasi va mas’uliyatli fuqarolik ishtirokini shakllantirishgacha bo‘lgan o‘zaro bog‘liq rivojlanish jarayoni sifatida tashkil etishga yo‘naltirilgan. Modelning asosiy konseptual xususiyati shundaki, unda ta’limning har bir bosqichi mustaqil maqsadga ega bo‘lishi bilan birga, avvalgi bosqichda erishilgan natijalarni rivojlantiradi va keyingi bosqich uchun zarur bilim hamda ko‘nikmalarni shakllantirib beradi.

Taklif etilayotgan milliy model bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan yettita asosiy tamoyilga asoslanadi. Birinchidan, uzluksizlik tamoyili inson huquqlari bo‘yicha ta’limning maktabgacha ta’limdan oliy ta’limgacha izchil tashkil

etilishini, har bir bosqichda bilim va ko‘nikmalarning murakkablik darajasi oshib borishini nazarda tutadi. Ikkinchidan, yosh xususiyatlariga moslik tamoyili ta’lim mazmuni, metodlari va vositalarini bolaning yoshi, psixologik hamda intellektual rivojlanish darajasiga muvofiq belgilashni talab qiladi. Uchinchidan, bola manfaatlarining ustuvorligi va ishtiroki tamoyili ta’lim jarayonida bolaning eng ustun manfaatlarini hisobga olish, uning fikrini erkin bildirish va qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etishini ta’minlashga qaratilgan. To‘rtinchidan, tenglik va inklyuzivlik tamoyili jinsi, yashash joyi, jismoniy imkoniyati va ijtimoiy holatidan qat’i nazar, barcha bolalar uchun inson huquqlari ta’limidan teng foydalanish imkoniyatini yaratishni anglatadi.Beshinchidan, amaliy yo‘nalganlik tamoyili nazariy bilimlarni huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarni aniqlash va huquqlarni himoya qilish ko‘nikmalari bilan uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi. Oltinchidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi tamoyili xalqaro inson huquqlari standartlarini milliy huquqiy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, ta’lim jarayonida davlat organlari, ta’lim muassasalari, oila, mahalla, fuqarolik jamiyati institutlari hamda xalqaro tashkilotlar hamkorligini ta’minlash ham modelning asosiy yo‘nalishlaridan hisoblanadi.Yettinchidan, institutsional hamkorlik tamoyili inson huquqlari ta’limining samaradorligini ta’minlash maqsadida davlat organlari, ta’lim tashkilotlari, oila, mahalla, fuqarolik jamiyati institutlari va xalqaro tashkilotlar faoliyatini o‘zaro muvofiqlashtirishni nazarda tutadi.

Modelning markaziy qismi bosqichlar bo‘yicha mazmun va usullarning muvofiqligini ta’minlashdan iborat. Quyidagi jadvalda taklif etilayotgan bosqichli struktura keltirilgan.

Bosqich	Asosiy mazmun	Usul va shakllar	Kutilayotgan natija

Bosqich	Asosiy mazmun	Usul va shakllar	Kutilayotgan natija
Maktabgacha ta’lim (3-7 yosh)	Hurmat, tenglik, xavfsizlik, o‘zini va boshqalarni qadrlash tushunchalari	O‘yin, ertak, rolli vaziyatlar, guruh qoidalarini birgalikda belgilash	Asosiy qadriyatlar va tenglik hissining shakllanishi
Boshlang‘ich ta’lim (1-4-sinflar)	“Mening huquqlarim va burchlarim”, bolaning asosiy huquqlari, zo‘ravonlikka yo‘l qo‘ymaslik	Dialog, kichik loyihalar, sinf “konstitutsiyasi”	O‘z huquqlarini bilish va yordam so‘rash ko‘nikmasi
Umumiy o‘rta ta’lim (5-9-sinflar)	Bola huquqlari konvensiyasi, Konstitutsiya asoslari, inklyuzivlik, kamsitmaslik	Keys-stadi, munozara, o‘quvchilar kengashi, sud jarayoni simulyatsiyasi	Huquqiy bilimni amaliy vaziyatlarga qo‘llash
O‘rta maxsus va professional ta’lim	Mehnat huquqlari, raqamli huquqlar, shaxsiy ma’lumotlar himoyasi	Amaliyot, ish beruvchilar bilan hamkorlik, treninglar	Kasbiy faoliyatda huquqlarni himoya qilish kompetensiyasi
Oliy ta’lim	Inson huquqlari fani modulini barcha yo‘nalishlarga kiritish; xalqaro mexanizmlar	Yuridik klinikalar, moot court, tadqiqot loyihalari, volontyorlik	Yoshlarning huquqiy targ‘ibotchi va ekspert sifatida ishtiroki

Birinchi bosqich: maktabgacha ta’limda inson huquqlarini dastlabki joriy etish

Inson huquqlari bo‘yicha ta’limning boshlanish nuqtasi maktabgacha ta’lim bo‘lishi kerak. Chunki aynan ushbu davrda bolaning shaxsiyati, ijtimoiy

munosabatlari, o‘zini anglash va boshqa insonlarga munosabati shakllana boshlaydi.

Mazkur bosqich maktabgacha yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan bo‘lib, inson huquqlari haqidagi dastlabki tushunchalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Bu yoshda bolalardan murakkab huquqiy tushunchalarni bilish talab etilmaydi. Aksincha, inson huquqlarining asosiy qadriyatlari tenglik, hurmat, xavfsizlik, shaxsiy daxlsizlik va boshqalarning manfaatlarini hisobga olish kabi tushunchalar kundalik hayotiy vaziyatlar yordamida o‘rgatiladi. Masalan, bolaga o‘yin davomida barcha ishtirokchilarning teng huquqliligi, boshqa bolaning buyumiga ruxsatsiz tegmaslik orqali mulkka hurmat, o‘z fikrini aytish orqali fikr erkinligi, zo‘ravonlikka qarshi munosabat orqali shaxsiy daxlsizlik va xavfsizlik tushunchalari singdiriladi.

Ushbu bosqich uchun “Mening ilk huquqlarim” nomli interaktiv ta’lim modulini ishlab chiqish taklif etiladi.Modul doirasida bolalarga ertaklar, rasmlar, qo‘g‘irchoq teatrlari, rolli o‘yinlar va oddiy hayotiy vaziyatlar orqali inson huquqlarining asosiy qadriyatlari tushuntirilishi ham lozim.

Ikkinchi bosqich: boshlang‘ich ta’limda asosiy huquqiy bilimlarni shakllantirish

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida bolalar o‘z huquqlarini aniqroq anglay boshlaydi. Shu sababli ularga Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyada belgilangan asosiy huquqlar sodda va tushunarli shaklda yetkazilishi lozim.Xususan, ta’lim olish, dam olish, sog‘liqni saqlash, fikr bildirish, axborot olish, oilada yashash va himoyalanish huquqlariga oid tushunchalar o‘rgatilishi zarur.

Boshlang‘ich ta’limda quyidagi kompetensiyalar shakllantirilishi taklif etiladi:

1. O‘zining asosiy huquqlarini bilish.
2. Huquq va majburiyatlarning farqini tushunish.
3. Boshqalarning huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish.

4. Kamsitish va haqoratning oddiy ko‘rinishlarini aniqlash.

5. Muammoli vaziyatda ishonchli katta yoshdagi shaxsdan yordam so‘rash.

Mazkur bosqichda **“Huquqlarim va mas’uliyatim”** nomli amaliy mashg‘ulotlar tizimini joriy etish ham taklif etiladi. Mashg‘ulotlarda bolalarga maktab, oila va tengdoshlari bilan munosabatlarga oid vaziyatlar berilib, ularni mustaqil tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Uchinchi bosqich: umumiy o‘rta ta’limda huquqiy tahlil va amaliy qo‘llash

Umumiy o‘rta ta’lim bosqichida inson huquqlari bo‘yicha ta’limning mazmuni yanada chuqurlashtirilishi kerak. O‘quvchilar nafaqat huquqlarning mazmunini bilishlari, balki ularning huquqiy asoslarini tushunish, huquqbuzarliklarni aniqlash va muammoli vaziyatlarga mustaqil baho berish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari lozim.Bu bosqichda huquqiy keyslar, debatlar, simulyatsion sud jarayonlari va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish metodlari qo‘llaniladi. Masalan:Bir guruh o‘quvchilar sinfdoshining fotosuratini uning roziligisiz ijtimoiy tarmoqqa joylashtirib, surat ostida haqoratli izohlar yozadilar.

O‘quvchilar ushbu vaziyatni bosqichma-bosqich o‘rganadilar.Qanday huquq va manfaatlarga zarar yetkazilishi mumkinligini aniqlaydilar.Vaziyat ishtirokchilarining xatti-harakatlariga baho beradilar.Jabrlangan shaxs uchun xavfsiz yordam olish yo‘llarini belgilaydilar.Bunday holatning takrorlanishini oldini olish choralarini ishlab chiqadilar.Ushbu bosqichda inson huquqlari bo‘yicha bilimlarni davlat va huquq asoslari, tarbiya va boshqa tegishli fanlar bilan bog‘lash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

To‘rtinchi bosqich: professional va oliy ta’limda huquqiy kompetensiyani rivojlantirish

Professional va oliy ta’lim bosqichida inson huquqlari bo‘yicha ta’lim nazariy va amaliy jihatdan chuqurlashtirilishi kerak.Bu bosqichda ta’lim oluvchilar xalqaro inson huquqlari huquqi, milliy qonunchilik, xalqaro shartnomalar, BMTning shartnomaviy organlari, inson huquqlarini himoya qilishning sud va

nosud mexanizmlari bilan tanishishi zarur. Ushbu bosqichning asosiy vazifasi avvalgi bosqichlarda egallangan nazariy bilim va tahliliy ko‘nikmalarni real hayotda qo‘llash kompetensiyasiga aylantirishdan iborat.Buning uchun **“Inson huquqlari amaliyoti”** nomli integratsiyalashgan ta’lim dasturini yaratish taklif etiladi.Dastur doirasida yoshlar murojaat loyihalarini tayyorlash, huquqiy muammolarni tahlil qilish, ishonchli huquqiy axborot manbalaridan foydalanish va fuqarolarga yordam ko‘rsatuvchi vakolatli tashkilotlar faoliyatini o‘rganish bilan shug‘ullanadilar.

Ayniqsa, turli ta’lim yo‘nalishlarida mazkur dastur mazmuni kasbiy faoliyat xususiyatiga moslashtirilishi mumkin.Masalan, yurisprudensiya yo‘nalishidagi talabalar inson huquqlariga oid murojaatlarning loyihalarini ishlab chiqish va huquqiy vaziyatlarni baholash ustida ishlaydilar.Pedagogika yo‘nalishidagi talabalar esa ta’lim muassasasida kamsitish, zo‘ravonlik yoki bolaning manfaatlariga zarar yetkazilishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarda xavfsiz pedagogik munosabat va tegishli yordam mexanizmlarini o‘rganadilar.Axborot texnologiyalari yo‘nalishidagi talabalar shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va bolalar uchun xavfsiz raqamli muhit yaratishga qaratilgan loyiha yechimlarini ishlab chiqishlari mumkin.

Ushbu bosqichda universitetlar, ta’lim tashkilotlari va tegishli mutaxassislar hamkorligida amaliy loyiha guruhlarini tashkil etilishi kerak.

Taklif etilayotgan “A-LEX” modelni ta’lim tizimida sinovdan o‘tkazish va bosqichma-bosqich joriy qilish uchun o‘zaro bog‘langan tashkiliy va pedagogik mexanizm ishlab chiqish lozim. Modelni joriy etish uchun har bir bosqichda alohida yangi fan tashkil etish shart emas. Uning elementlarini mavjud ta’lim va tarbiya mashg‘ulotlari, huquqiy fanlar, loyiha ishlari va sinfdan tashqari tadbirlarga integratsiya qilish mumkin. Modelni samarali amalga oshirish uchun tarbiyachilar, maktab o‘qituvchilari va oliy ta’lim pedagoglari uchun yoshga mos amaliy topshiriqlar, vaziyatli mashqlar va baholash mezonlaridan iborat metodik materiallar ishlab chiqilishi lozim.Ushbu materiallarda bir xil mavzu turli yosh

bosqichlari uchun murakkablik darajasi oshib boradigan shaklda taqdim etilishi kerak.

Mashg‘ulotlar turli ehtiyojlarga ega bolalar uchun qulay bo‘lishi, zarur hollarda audio, vizual, subtitrli va boshqa moslashtirilgan materiallar orqali taqdim etilishi kerak. Shuningdek, inson huquqlariga oid interaktiv vaziyatlar va mashqlarni birlashtiruvchi ***“A-LEX-Huquq maktabi”*** nomli raqamli ta’lim platformasini yaratish taklif etiladi. Platformaning konseptual vazifasi foydalanuvchining ta’lim bosqichiga mos materiallarni taqdim etish, vaziyatli topshiriqlarni bajarish imkoniyatini yaratish va o‘quv natijalarini kuzatishdan iborat.Bunda platforma bolalar haqida ortiqcha shaxsiy ma’lumot yig‘masligi, yoshga mos xavfsizlik talablarini ta’minlashi hamda raqamli imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun muqobil ta’lim shakllarini saqlab qolishi zarur.

Modelning samaradorligi faqat o‘quvchilarning nechta huquqni yoddan bilishi bilan emas, balki egallangan bilimlarni mustaqil qo‘llash, muammoni tahlil qilish, huquqiy nizolarni yechish ko‘nikmalari asosida baholanishi kerak.Baholash natijalari ta’lim dasturlarini yangilash va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur hisoblanadi.

Modelning amaliy jihatdan asoslanganligini ta’minlash maqsadida uni dastlab cheklangan miqyosda pilot loyiha sifatida sinovdan o‘tkazish taklif etiladi.Bunda Pilot loyiha uchun turli hududlar va ta’lim sharoitlarini ifodalovchi maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumta’lim maktablari, professional hamda oliy ta’lim muassasalari sinov uchunh tanlab olinib belgilanadi.

“A-LEX” modelini ta’lim amaliyotiga bosqichma-bosqich joriy etish quyidagi natijalarga erishishga xizmat qilishi mumkin.Avvalo, inson huquqlari bo‘yicha ta’limning turli bosqichlari o‘rtasida mazmuniy uzviylik shakllanadi. Bunda huquqiy bilimlar bir-biridan ajralgan mavzular sifatida emas, balki bolaning yoshiga mos ravishda takomillashib boradigan yagona tizim doirasida o‘zlashtiriladi.

Ikkinchidan, o‘quvchilarning nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratiladi. Bu huquqiy ta’limni yodlashga asoslangan jarayondan muammolarni tahlil qilish va yechim izlashga yo‘naltirilgan faoliyatga aylantirishga yordam beradi.Uchinchidan, ta’lim muassasalarida inson qadr-qimmatiga hurmat, tenglik, xavfsizlik va o‘zaro mas’uliyatga asoslangan munosabatlarni rivojlantirish imkoniyati kengayadi.

To‘rtinchidan, pedagoglar uchun umumiy kompetensiyalar xaritasi va amaliy metodik materiallarning yaratilishi inson huquqlari bo‘yicha ta’limni izchil,samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, yoshlarning huquqiy savodxonligini,huquqiy ong va huquqiy madaniyatini ijtimoiy tashabbuslar bilan bog‘lash orqali ularning jamiyat hayotidagi mas’uliyatli ishtirokini rivojlantirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratiladi.Ushbu natijalar modelni sinovdan o‘tkazish jarayonida tekshirilishi va olingan empirik ma’lumotlar asosida aniqlashtirilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, inson huquqlari ta’limi barqaror rivojlanishning ajralmas qismi bo‘lib, uni bolalar va yoshlar uchun uzluksiz, yosh xususiyatlariga mos va amaliy yo‘nalgan tarzda tashkil etish xalqaro huquqiy majburiyatlarni bajarishning sharti hisoblanadi. O‘zbekiston qonunchiligi xalqaro standartlarga asosan mos bo‘lsa-da, sohani yagona tizim sifatida tartibga soluvchi normativ asos va monitoring mexanizmlari takomillashtirilishi va taklif etilgan “A-LEX” modelini bosqichma-bosqich pilot usulida joriy etish tartib-taomillarini qonuniy asoslarga ko‘ra ko’rib chiqib amaliyotga joriy qilish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-2023-URL-// https://lex.uz/uz/docs/-6445145 //

2.Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi-1948-URL-// https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights?ysclid=mwb52kgqm2548455883 //

3. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt-1966-URL-// https://lex.uz/docs/-2686000 //

4. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya-1989-URL-// https://unispal.un.org/pdfs/D0A4C3AD19FE4A04052565F70070691A.pdf //

5. BMTning Inson huquqlari bo‘yicha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi deklaratsiyasi-2011-URL-// https://www.hurights.or.jp/archives/asia-pacific/section1/pdf/11%20-%20UN%20Declaration%20on%20Human%20Rights%20Education%20and%20Training.pdf //

6. Bola huquqlari qo‘mitasining 1-sonli Umumiy sharhi-2001- // https://www.right-to-education.org/sites/right-to-education.org/files/resource-attachments/CRC_General_Comment_1_en.pdf //

7. BMT Bosh Assambleyasining 2015-yil 25-sentabrdagi 70/1-son rezolyutsiyasi, “Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development”. URL: https://sdgs.un.org/2030agenda //

8. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni-URL-// https://www.lex.uz/uz/acts/-4872355 //

9. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr-URL // https://lex.uz/uz/docs/-5013007 //

10.“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun-2008-URL-// https://lex.uz/uz/docs/-1297315 //

11.“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun-2016-URL-// https://test.lex.uz/uz/docs/-3026246 //